

## **12-Mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy faoliyati tahlili**

### **Reja:**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini o'rganish usullari.
2. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili. O'rtacha sotish narxlari darajasining tahlili.
3. Mahsulot tannarxining mohiyati va hisoblash usullari.
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini aniqlash.
5. Yagona yer solig'i va uning hisobi.

**Tayanch iboralar:** asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, balans, balans reja, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, daromadlar, favqulodda daromad(zarar), foyda, ishlab chiqarish xarajatlari, kalkulyasiya, yalpi foyda, moliyaviy natijalar, moliyaviy rejalashtirish, narx, rentabellik, sof foyda, sof milliy mahsulot, soliq imtiyozlari, yalpi milliy mahsulot,

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R, Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent-2004 y.

#### **Xorijiy adabiyotlar:**

1. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
2. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw- Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
3. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
4. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF- 4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora - tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovasiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyyoti, 2007.
5. Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU

taxririya 2004y.

6.Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007.

- 276 b.

7.Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004.

- 144 s. 8.Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

### **12.1. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini o'rganish usullari.**

Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatini o'rganishda tahlil uslubiga ko'ra, taqqoslash, tekshirish, ma'lumotlarni ishlab chiqish statistik guruhlash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar, zanjirli bog'lanish usullari, matematik usullar va hokazolardan foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatini yuqorida qayd etilgan usullar yordamida o'rganish xo'jalikdagi foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlashga, ularni ishlab chiqarishga joriy etish ish faoliyati samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bunda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri taqqoslashdir. Bu usulda bir necha iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan:

- hisobot ko'rsatkichlari rejada keltirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi;
- hisobot yilida erishilgan natijalarni ko'rsatuvchi o'tgan yillardagi bajarilish ma'lumotlari bilan solishtiriladi;
- ishlab chiqarish yo'nalishida bir necha yil davomida o'zgarishlar dinamikasi aniqlanadi;
- qishloq xo'jalik bo'linmalarining ishlab chiqarish natijalari tuman, viloyat va respublika bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlar, hamda dehqon va fermer xo'jaliklari ish natijalari bilan birgalikda solishtiriladi. Bu orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash va ularni joriy etish choralarini belgilash imkoniyati ayonlashadi.

Taqqoslash usuli yordamida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida o'zaro uzviy bog'liq ko'p ko'rsatkichlar bir-biriga solishtiriladi. Xususan, har gektar qishloq xo'jalik yeri hisobiga qanchadan daromad olish, mehnat unumdorligini mahsulot tannarxi, mahsulot sotishni, qishloq xo'jaligida 513ovar mahsulotlarining o'sishi, xo'jaliklarning daromadi va ularning taqsimlanishi, texnikadan foydalanishi, mehnat, yem-xashak balansi, xo'jalik iqtisodiyotining rivojlanishi va boshqa ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin.

Har bir taqqoslash o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, korxonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'nalishi uchun zarur muammolarni topishga imkon beradi.

Taqqoslash usulidan foydalanishda taqqoslash uchun solishtirish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardan foylanish kerak. Masalan, bir necha yil davomida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy xajmidagi o'zgarisho'larni belgilash uchun haqiqiy sotish narxlarini emas, balki bir birlikka keltirilgan narxlarni taqqoslash zarur. Guruhlarga ajratilgan uslub, guruhlash ma'lumotlarini ma'lum belgilarga ko'ra guruhlarga bo'lish demakdir. U 513ovar513513513i tahlilning muhim usuli hisoblanadi. Uning yordamida xo'jalik tarmoqlari, hosildorlik, mahsulot hajmi, chorva mollari mahsuldorligi va boshqalar aniqlanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar sifat jihatdan bir xil bo'lgan guruhlarga bo'linadi. Ko'rsatkichlar o'rtasida bir-biriga bog'lanishlar borligini o'rganilayotgan hodisalarning eng muhimlardan biri ekanligi aniqlanadi. Har bir omillarning ishlab chiqarish natijalariga qay darajada, qanday ta'sir qilishi belgilanadi. Strategik guruhlash uslubi qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlarni aniqlab berishning muhim vositasidir. Uning yordamida sifati bir xil bo'lgan ko'rsatkichlar bir guruhga birlashtiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida tahlil qilish ishlarini tashkil etishning asosiy shakli iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy kengashdir. Uning asosiy vazifasi xo'jalikning va ishlab chiqarish bo'linmalarining ma'lum davr ichidagi ish natijalarini har tomonlama o'rganishdan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning joriy istiqboli rejalarini ishlab chiqishda qatnashishidan, imkoniyatlarni aniqlanishidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashdan

iborat.

## **12.2. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyati moliyaviy natijalari olingan miqdori va rentabellik darajasi bilan karakterlanadi. Foyda miqdori qanchalik ko'p va rentabellik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalar shunchalik samarali faoliyat yuritadi, uning moliyaviy holati shunchalik barqaror bo'ladi. Shuning uchun foyda miqdori va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini qidirish har qanday biznes sohasida asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy natijalarni boshqarish jarayonida iqtisodiy tahlil muhim ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi ustidan muntazam nazorat yuritish;
- ham obyektiv va ham subyektiv omillarning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash;
- foyda miqdori va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, hamda ularni bashorat etish;
- foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha korxonalar ishini baholash;
- aniqlangan imkoniyatlarni tadbiiq etish bo'yicha chora- tadbirlar ishlab chiqish.

Tahlil etish jarayonida quyidagi foyda ko'rsatkichlari ishlatiladi:

- marjinal foyda (sotilgan mahsulot bo'yicha tushum va ishlab chiqarish xarajatlari orasidagi farq);
- mahsulot, tovar, xizmatlar sotilishidan olinadigan foyda (marjinal foyda va hisobot yilidagi doimiy xarajatlar miqdorlari orasidagi farq);
- soliqqa tortilganga qadar umumiy moliyaviy natija (mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan moliyaviy natijalar, investisiyaviy va moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromad va xarajatlar, sotishdan tashqari va favqulotdagi daromad va xarajatlar);
- soliqqa tortiluvchi foyda (brutto-foyda va daromad solig'iga tortiluvchi foyda miqdori orasidagi farq, foyda solig'I bo'yicha imtiyozlar miqdori);
- sof foyda - bu hamma soliqlar, iqtisodiy jarimalar va boshqa majburiy To'lovlardan so'ng korxonalar ixtiyorida qoluvchi foydaning bir qismi;
- kapitallashtirilgan (taqsimlanmagan) foyda - bu aktivlarni ko'paytirish uchun yo'naltirilgan foydaning bir qismi;
- iste'moldagi foyda - dividendlarni to'lash, korxonalar xodimlari yoki ijtimoiy dasturlar uchun sarflanuvchi foydaning bir qismi.

Tahlil etish jarayonida balansdagi foyda tarkibi, uning tuzilishi, o'zgarishi va hisobot yilida belgilangan miqdorga erishilganligini o'rganish lozim. Foydaning o'zgarishini o'rganishda inflyasiyaviy omillarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda tushumni tarmoq bo'yicha korxonalar mahsulotiga narxlar o'sishining solishtirma indeksi asosida, xarajatlarni esa tahlil etilayotgan yilda iste'mol qilingan resurslar narxining oshishi natijasida erishilgan o'sish sur'ati barobarida kamaytirish asosida qayta aniqlaydilar. (5.1-rasm)

Agrar soha korxonalarini foydaning asosiy qismini mahsulot va xizmatlarni sotishdan olishadi. Tahlil etish jarayonida mahsulotni sotishdan olinadigan foydaning o'zgarishi o'rganiladi, hamda uning o'zgarish omillari aniqlanadi.

Mahsulotni sotish hajmi foyda miqdoriga ijobiy va salbiy ta'sir etishi mumkin. Rentabelli mahsulotni sotish hajmining oshirilishi foydaning ko'payishiga olib keladi. Agar mahsulot ziyon keltiruvchi bo'lsa, sotish hajmining oshishi bilan foyda kamayadi.

Tovar mahsuloti tarkibi foyda miqdoriga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etadi. Agar nisbatan rentabelli mahsulot turlari ulushi umumiy sotish hajmidan oshsa foyda miqdori ko'payadi.

Aksincha, kam rentabelli mahsulot yoki ziyon keltiruvchi mahsulot ulushi oshsa foydaning umumiy miqdori kamayadi. Mahsulot tannarxi foydaga teskari proporsional: tannarxning tushishi foydaning oshishiga olib keladi va aksincha.

Hisob-kitoblar har bir turdagi mahsulot bo'yicha amalga oshirilgandan so'ng, korxonada qaysi mahsulot turini ishlab chiqarish nisbatan daromadlilik, rentabellik darajasi qanday o'zgarganligi va bunga qaysi omillarning ta'siri bo'lganligini aniqlash mumkin.

*Xo'jalikrentabelligining tahlili. Rentabellik nisbiy ko'rsatkich bo'lib, biznesning daromadlilik daraj asini bildiradi. Bu ko'rsatkichni korxon faoliyatini baholash va investisiyaviy siyosatni yuritish, hamda baho belgilashda asosiy mezon sifatida ishlatishadi.*

Xo'jalikni rentabelligini aniqlash yalpi mahsulot, yalpi va sof daromad kabi omillar bilan bog'liq. Yalpi mahsulot-bu xo'jalikda yetishtirilgan barcha mahsulotning yig'indisi. Agar yalpi mahsulotdan sarflangan ishlab chiqarish mablag'lari (material-pul xarajatlari) chiqarib tashlansa, u holda yalpi daromad hosil bo'ladi. Yalpi daromad o'z navbatida sof daromad va mehnat haqiga bo'linadi. Binobarin, yalpi daromadning mehnat haqi fondi chiqa-rib yuborilgandan keyin qolgan qismi sof daromad hisoblanadi. Sof daromad mahsulotni realizasiya qilishdan kelgan summadan uni yetishtirishga sarflangan xarajatlar chiqarib yuborilgandan keyin qolgan qismiga tengdir.

Xo'jalikning rentabelligi, dastavval, mahsulotni realizasiya qilishdan olingan sof daromad (foyda) bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi barqaror darajada bo'lsa, tannarx kamayadi, mahsulot yetishtirish va realizasiya qilish hajmi ko'payadi, uning sifati yaxshilanadi. Bularning hammasi rentabellikni oshirishga imkon beradi.

Alohida olingan mahsulotning, tarmoqning yoki butun bir korxonaning iqtisodiy samaradorligini, olingan foyda orqali aniqlash to'liq natij a bermaydi. Buning uchun olingan foydani hosil qilish maqsadida uning qiymatini sarflangan xarajat bilan taqqoslash kerak. Bunda rentabellik darajasi I ko'rsatkichidan foydalaniladi. U foydani material va mehnat xarajatlari (mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq) qiymatlari nisbatining foizdagi darajasini ko'rsatadi.

Rentabellik darajasining har bir foizi sarflangan bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foydani bildiradi, ya'ni agarda donchilik xo'jaligining rentabellik darajasi 73 foizni tashkil

qilsa, bu har bir so'mlik moddiy va mehnat xarajati hisobiga, ularni qoplagandan so'ng 73 so'm foyda ko'rganini bildiradi.

### **12.3.Mahsulot tannarxining mohiyati va hisoblash usullari**

Tannarx-xo'jalikning mahsulotni yetishtirish va uni realizasiya etish uchun qilingan barcha xarajatlarining pul shaklida ifodalangan yig'indisidir. Tannarx barcha mahsulotni yoki uning birligini yetishtirish va realizasiya qilish korxonaga qanchaga tushishini ko'rsatadi.

Mahsulot tannarxi-umuman xo'jaliklarda, shuningdek ularning ishlab chiqarish bo'limlari ishining eng muhim ko'rsatkichlaridir. Mahsulot tannarxida xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyatini darajasi va sifati o'z ifodasini topadi.

Hozirgi kunda xo'jaliklarda tannarx kategoriyasidan xo'jalik hisobini yuritishda keng foydalanilmoqda. U eng foydali ixtisoslashtirishni tanlash, tarmoqlarni joylashtirish va bir-biriga muvofiqlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va ekinlarning hamda xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlarining rentabelligini oshirish zaxiralarini aniqlash imkonini beradi.

Har bir xo'jalikda mahsulot tannarxini kamaytirish maqsadida muttasil va rejali ravishda ish olib 520ovar520520 uchun faqat ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarning umumiy yig'indisigina emas, balki mahsulotning har bir turiga qilingan konkret xarajatlarni ham bilish kerak. Xarajatlar moddasi bo'yicha ishlab chiqarishni rejalashtirish va xarajatlarni hisobga olishning xo'jaliklarda Qo'llaniladigan usuli ana shu talabga javob beradi.

*Ishlab chiqarish tannarxi bo'lim tannarxining umumiy xo'jalik chiqimlariga ko'paytirilgan summasidir. Umum-xo'jalik chiqimlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari turi bo'yicha va hisobot davrlarida tarmoqlar bo'yicha tannarxni shakllantirishga qarab taqsimlanadi.*

*To'liq tannarx-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tannarxining ularni realizasiya qilish bilan bog'liq bo'lgan sumмага ko'paytirilganidan iboratdir. Ushbu tannarx savdo chiqimlari deb ham yuritiladi.*

Aniqlash usullari va qo'llash doiralariga qarab tannarxni rejali va haqiqiy turlarga tasnif qilish qabul qilingan.

Rejadagi tannarx iqtisodiy hisob-kitoblar asosida, haqiqiy tannarx, buxgalteriya hisobi va

hisobotlar natijasiga qarab aniqlanadi. Xarajatlarning tarkibiga ko'ra rejali tannarx haqiqiy tannarxdan quyidagicha. Ya'ni unga ishlab chiqarish bilan bog'liq Bo'lmagan xarajatlar, masalan, yaroqsiz mahsulotlarga ketgan xarajatlar, chorvaning yalpi o'limi tufayli kelib chiqadigan chiqimlar kiritilmasligi bilan farqlanadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning boshqa sohalaridan farqli ravishda taxminiy va kutilayotgan tannarxni farqlaydilar. Bu tannarxlar hisobot yilining boshida so'nggi 9 oylik xarajatlarning umumiy yig'indisi hamda so'ngi chorakda mahsulotning rejalashtirilgan tannarxiga qarab belgilanadi.

Rejali va haqiqiy tannarxni aniqlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxi shakllanadigan chiqimlar guruhi muammosi 520 ova ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini shakllantiradigan xarajatlar guruhlarini farqlashdan keng foydalaniladi. Ular iqtisodiy mohiyatiga ko'ra quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- materiallar uchun ketgan (moddiy) xarajatlar;
- ish haqi chiqimlari;
- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratilgan xarajatlar;
- asosiy tovar amortizatsiyasiga sarflanadigan xarajatlar;
- boshqa barcha xarajatlar.

Iqtisodiyot hisob-kitoblarida mahsulot tannarxini xarajatlarning kalkulyasiyaviy (mahsulotning olish-sotish bo'yicha hisoblab chiqilgan baholari) moddalariga qarab aniqlash qabul qilingan. Bu usul xarajatlar guruhini turlar bo'yicha juda tugal aniqlash va yuqorida sanalgan elementlarning har birini tannarx miqdoriga ta'sirini belgilash, pirovardida qishloq xo'jaligi muassasasining moliyaviy hamda iqtisodiy holatini ravshan tasavvur qilish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligida xarajatlarni kalkulyasiyaviy moddalar bo'yicha guruhlash sanoat tarmoqlaridagi shunga o'xshash guruhlashlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish, hisob-kitob qilish, tannarxini hisoblash uchun uslubiy tavsiyalar Respublika Qishloq va Suv Xo'jaligi Vazirligi buyruqlari bilan belgilanadi. Bu tavsiyalarga ko'ra mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida xarajatlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratilgan xarajatlar bilan birgalikda mehnatga haq to'lash uchun ketgan xarajatlar;
- urug'lar va o'tqaziladigan ko'chatlar uchun sarflanadigan xarajatlar;
- mineral o'g'itlar xarajati;
- o'simliklar va chorvani himoya qilish bo'yicha xarajatlar;
- ozuqa xarajatlari;
- xomashyoni qayta ishlash xarajatlari;
- asosiy vositalarni ekspluatatsiyasiga sarflanadigan xarajatlar.

Jumladan :

- a) neft mahsulotlari;
  - b) asosiy vositalar ammortizatsiyasi;
  - v) asosiy vositalarni ta'mirlash uchun ketadigan chiqimlar.
- turli ishlar va xizmat ko'rsatish xarajatlari;
  - ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqaruv sarflari;
  - qarzlarni bo'yicha to'lovlar;
  - chorva mollari o'lati chiqimlari;
  - boshqa barcha xarajatlar.

Ishlab chiqarish xarajatlari o'zining roli va mahsulot tannarxiga qo'shilish usuli jihatdan bevosita va bilvosita qilingan xarajatlarga bo'linadi.

Bevosita (asosiy) xarajatlar ma'lum mahsulotni yetishtirishga sarflangan xarajatlar bo'lib, ular mahsulotning tannarxiga bevosita qo'shilishi mumkin.

Dehqonchilikning bevosita xarajatlariga quyidagilar kiradi: dehqonchilik tarmoqlarida

bevosita band bo'lgan ishlovchilar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar; urug'lik va ko'chatlar, yonilg'i va moylash materiallari, zaharli moddalarning qiymati; traktorlar va qishloq xo'jalik mashinalarining amortizatsiyasi; ishlab chiqarish binolari, mashinalar va inventarlarni joriy ta'mirlash, avtotransport, elektrostansiya va hokazolar tomonidan ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishning qiymati.

Chorvachilikning bevosita xarajatlariga quyidagilar kiradi: chorva mollariga qarashda bevosita band bo'lgan ishlovchilar mehnatiga haq tarzida to'lanadigan xarajatlar, chorvachilik binolari, mashinalar, inventarlar va asbob-uskunalarining qiymati, yordamchi ishlab chiqarish xizmatining qiymati va hokazolar.

Ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar bilvosita xarajatlardir. Bu xarajatlar yetishtirilgan u yoki bu mahsulot tannarxiga bevosita kiritilishi mumkin emas. Bilvosita xarajatlar umumxo'jalik va umumishlab chiqarish xarajatlariga bo'linadi.

Umumxo'jalik xarajatlari umuman xo'jalikni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lib, unga quyidagilar kiradi: xo'jalik raislari, ombor mudirlari, qorovullarga to'lanadigan haq, yengil transportni saqlash va xizmat safarlariga qilingan xarajatlar, idora, pochta, telegrafga va boshqa sarflar. Imoratlar va inshootlar (yo'llar, ko'priklar), umumxo'jalik inventarlari va asbob uskunalarining ammortizatsiyasi, ularni joriy ta'mirlash va saqlashga sarflangan xarajatlar ham umum xo'jalik xarajatlari jumlasiga kiradi.

Ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlari, masalan, dehqonchilik, chorvachilik, qurilish va hokazolarni boshqarish hamda ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar umumishlabchiqarish xarajatlaridir. Umumishlab-chiqarish xarajatlariga quyidagilar kiradi: bo'lim boshliqlari, yoqilg'I quyuvchilar mehnatiga haq to'lash uchun ketgan xarajatlar; mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga qilingan xarajatlar; dala shiyponlariga, ishlovchilarni tashishga va hokazolarga sarflangan xarajatlar.

Mahsulot tannarxini, shuningdek ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ish haqini hisoblab chiqish kalkulyasiya deb ataladi.

Xo'jaliklarda tannarxni rejadagi va amaldagi kalkulyasiyasi olib boriladi. Amaldagi kalkulyasiyani ishlab chiqarishning butun sikli tugagandan keyin buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha qilingan amaldagi xarajatlar asosida tuzib chiqiladi.

Amaldagi va rejadagi kalkulyasiyalar natijalarini tahlil qilish va taqqoslab ko'rish, yetishmovchiliklarni aniqlash hamda kelgusi hisobot davri uchun tannarxni kamaytirish yuzasidan tadbirlar belgilash imkoniyatini beradi.

***Ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlari-qishloq xo'jaligi korxonasi jamoasi, shirkat, fermer xo'jaligi va h.z. laming aniq bir mahsulot turini ishlab chiqarishi uchun sarf qilgan chiqimlarining umumiy yig'indisidan iborat.***

Ishlab chiqarish xarajatlari haqida so'z ketar ekan, hozirgi va umuman, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va u bilan bog'liq o'zaro munosabatlarda ochiq va yashirin xarajatlarni farq etish qabul qilingan.

***Ochiq xarajatlar - korxonaning ishlab chiqarish - omillariga to'lash uchun ketgan xarajatlardir. Mehnat, yer (tabiiy zahiralalar) va sarmoya ishlab chiqarishning klassik omillari hisoblanadi. Barcha ochiq xarajatlar oxir-oqibatda ishlab chiqarish uchun foydalanilgan omillarni qoplashga olib keladi. Ochiq xarajatlarga ish haqi sifatida mehnatga haq to'lash, ijara haqi shaklidagi yer qiymati, asosiy va aylanma vositalar uchun chiqim sifatida ketgan sarmoyalar - mablag'lar kiradi. Barcha ochiq xarajatlarning yig'indisi o'zicha mahsulot qiymati bo'ladi. Bozor narxlari va mahsulot tannarxi o'rtasidagi farq esa daromadni tashkil qiladi.***

Biroq barcha ishlab chiqarish va realizasiya chiqimlarining yig'indisi, agar unga faqat ochiq xarajatlarni kiritsak, kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Odatda, xarajatlarning butun yig'indisini aniqlash uchun ishlab chiqarishning yashirin xarajatlari tushunchasi qabul qilingan.

***Yashirin xarajatlar - korxonaning xususiy mulki bo'lgan omillardan foydalanish uchun ketgan muqobil chiqimlardir. Bu chiqimlar muassasaning boshqa yuridik va jismoniy***

***shaxslarga bergan to'lovlari hisobiga kirmaydi. Bundan tashqari ular buxgalteriya hisobotlarida ham qayd etilmaydi.***

Masalan, yer egasi bo'lgan biror tashkilot yerni ijaraga bergandan ko'ra undan o'zi foydalanishni ma'qul ko'radi. Bunday holatda yer egasi yerni ijaraga berganda olishi mumkin bo'lgan ijara qiymati yashirin xarajat hisoblanadi. Aynan ana shu qiymatiga ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijani qiyoslash kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadning uch turidan foydalaniladi:

- buxgalteriya daromadi - bu umumiy daromad bilan ochiq xarajatlar o'rtasidagi farqdir. Buxgalteriya daromadi ustuvor moliyaviy ko'rsatkich bo'lib, o'ta aniqlik bilan belgilanadi;

- ***iqtisodiy daromad - bu korxonaning umumiy daromadi bilan barcha ochiq va yashirin xarajatlari o'rtasidagi farq bo'lib, to'la iqtisodiy xarakterga ega. Bunda daromod miqdori shartli bo'lib, korxonada biror ishlab chiqarishni tashkil etish haqida qaror qabul qilganda qo'llaniladi. Ushbu holatlarda iqtisodiy daromadlar boshqa bir o'xshash ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va me'yoriy daromad darajasi bilan qiyoslanadi;***

- me'yoriy daromad. Korxonada egasining ishlari uchun sarflangan yashirin xarajatlarga teng bo'lgan foydadir. Xarajatlarning ochiq va yashirin turlarga bo'linishi ularni tasnif qilishga imkon beradigan usullardan biridir.

***Ishlab chiqarish omillari ma'lum bir o'ziga xosliklarga ega bo'lib, ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shuning uchun ma'lum bir chegaralargacha bir-birining o'rnini almashtirish mumkin. Masalan, mashina inson mehnati o'rnini bosadi yoki ba'zi paytlarda inson mashina qiladigan ishni bajaradi. Omillarning bunday almashinuvlari, shuningdek bir-birining vazifasini bajara olishi omil harakatchanligi deyiladi. Omil qancha harakatchan bo'lsa, korxonada uchun shunchalik foydalidir. Ishlab chiqarish amaliyotida mutloq va kam harakatchan omillar mavjud. Kam harakatchan omillarga vazifasini o'zgartirish mumkin bo'lmagan yoki o'zgartirish juda zararli bo'ladigan omillar kiradi. Agar bunday omil inson bo'lsa, uni monopol element deyiladi. Masalan, kamyob kasb egasi odatdagi xarajatlar, ya'ni ish haqidan tashqari qo'shimcha haq talab qilishi mumkin.***

Ishlab chiqarish usullariga tannarx elementlari deb yuritiladigan chiqimlar tasnifi ko'rsatkichlari ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Asl ma'noda faqat doimiy (barqaror) yoki o'zgaruvchan chiqimlar bo'lmasada, iqtisodiyotda "shartli" so'zi qo'llanilmagani uchun ulardan foydalaniladi. Shuning uchun xarajatlar, odatda, quyidagicha tasnif qilinadi:

***Doimiy xarajatlar-miqdori korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish omillariga ketgan xarajatlar bilan bog'liq chiqimlardir. Bular ijara to'lovi, kommunal to'lovlar va h.z.lardan iborat.***

***O'zgaruvchan xarajatlar-miqdori bevosita korxonada ishlab chiqarishi hajmi bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar. Bunday xarajatlarga ishlab chiqarishdagi ishlovchilarga to'langan ish haqi, xomashyo, materiallar va h.z.larga ketgan chiqimlar kiradi.***

O'zgaruvchan xarajatlar aylanma sarmoyadan foydalanish bilan bog'liq xarajatlardir.

Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning yig'indisi umumiy yoki yalpi xarajatlar deb yuritiladi.

***Mahsulot tannarxini hisoblab chiqish usullari. Mahsulot birligining (tonna, sentner) yoki ish birligining (haydalgan bir gektar yer, tonna, kilometr) tannarxi sarflangan xarajatlarning yig'indisini (mehnatga to'langan haq material-pul xarajatlari) olingan mahsulotning hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.***

Mahsulot tannarxi aniqlanganda xarajatlarning ayrim turlarini hisoblab chiqishning xususiyatlari hisobga olinadi. Xo'jalikning o'zida yetishtirilgan tovarlar (urug'lik, ozuqa va hokazolar) hozirgi vaqtda ularni ushbu xo'jaliklarda yetishtirish tannarxi bo'yicha baholanadi. Sotib olingan materiallar esa ularning haqiqiy sotib olish narxlarini bo'yicha baholanadi.

Qishloq xo'jaligida asosiy mahsulot bilan bir qatorda qo'shimcha mahsulot ham olinadi. Masalan don yetishtirganda olingan somon va chori, lavlagichilikda barg, chorvachilikda go'ng va hokazolar qo'shimcha mahsulot hisoblanadi. Ayrim tarmoqlar esa bir necha xil asosiy mahsulot beradi (ularni tutash mahsulotlar deyiladi). Masalan qo'ychilikda jun, go'sht, sut,

parrandachilikda tuxum, go'sht va hokazolar olinadi.

Ekinlar va tarmoqlar bo'yicha ammortizasiya ajratmalari quyidagicha taqsimlanadi: agar ishlab chiqarish uchun asosiy mablag'lar bir necha tarmoq mahsulotini yetishtirishga sarflangan bo'lsa, u holda ammortizasiya ajratmalari ekinlar va tarmoqlar bo'yicha ana shu ekinlar va tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri qilingan mehnat sarflariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Tarmoqlar, ekinlar va mahsulot turlari bo'yicha umum xo'jalik va umumishlabchiqarish xarajatlari to'g'ridan - to'g'ri mehnat sarflariga ammortizasiyaga qilingan mutanosib ravishda taqsimlanadi.

***Mahsulot tannarxini kamaytirish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rentabelligini oshirish. Xo'jaliklar dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxini kamaytirish va shu asosda barcha mahsulot turlarining rentabelligini oshirish hamda sof daromadning umumiy hajmini ko'paytirish uchun juda ko'p zaxiralarga egadir.***

Kompleks mexanizasiyalash, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirishning eng muhim yo'li hisoblanadi.

Izchillik bilan intensivlashtirish asosida ekinlarning hosildorligini, chorvachilikning mahsuldorligini oshirish mahsulot tannarxini kamaytirish, rentabellik darajasini oshirish daromad umumiy hajmini ko'paytirishda eng muhim rol o'ynaydi.

Asosiy ishlab chiqarish jamg'armalaridan foydalanishni yaxshilash mahsulot tannarxini arzonlashtirish omili hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqarishning aylanma mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanishning ham ahamiyati 523ova. Xulosa qilib aytganda, jamg'armalarning o'rnini qoplash darajasining oshishi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning yirik zaxirasidir.

Mahsulot sifatini yaxshilash rentabellikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish va qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z vaqtida yig'ishtirib olish hamda yetkazib berish orqali erishiladi.

Tarmoqlarni markazlashtirish, maqsadga muvofiq ravishda ixtisoslashtirish va joylashtirish, to'g'ri muvofiqlashtirish ishlab chiqarishni arzonlashtirishga ta'sir etadi. Fan tavsiyalarini va ilg'or tajribalarni ishlab chiqarishga izchillik bilan tadbiq etish, dehqonchilik madaniyatini tizimli ravishda yuksaltirish, qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish va kimyolashtirish - bularning hammasi, bir tomondan, mahsuldorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan mahsulot birligiga sarfni keskin suratda kamaytiradi.

Mehnat va moddiy pul mablag'larini tejab-tergab sarflash, ma'muriy boshqarish xarajatlarini va boshqa har qanday o'rinsiz xarajatlarni qisqartirish uchun kurash olib borish tannarxni kamaytirishda juda katta ahamiyatga ega.

Dehqonchilikda hosildorlikni, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish hamda xarajatlarni qisqartirish avvalo xo'jalikni mohirlik bilan boshqarishga, yer, ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liqdir. Xo'jaliklar rivojlana borgani sari qishloq xo'jalik mahsulotlarini yanada ko'proq yetishtirish va ularni arzon qilish uchun tobora yangi imkoniyatlar vujudga keladi.

Mahsulot tannarxinig kamaytirilishi, avvalo, xo'jaliklarning ish natijalariga bog'liqdir. Xo'jaliklarning asosiy vazifasi mehnat va mablag'larni eng kam sarflagan holda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni maksimal darajada ko'paytirishdan iborat. Bunga erishmoq uchun qishloq xo'jaligidagi hamma ishlarni o'z vaqtida va sifatli qilib amalga oshirish, mashina texnikasidan, o'g'itlardan va boshqa moddiy vositalardan g'oyat samarali foydalanish zarur. Moddiy ne'matlarning hammasi oqilona tashkil etilgan mehnat bilan qo'lga kiritiladi. Zamonaviy mashina texnikasi bilan ta'minlangan xo'jalik dalalarining yaxshi ishlashi, chorva mollarni yaxshi parvarish qilish va ayni vaqda qo'l mehnati sarfini qisqartirishi mumkin.

Har bir xo'jalik mehnat unumdorligini oshirish, o'z mahsuloti tannarxini kamaytirish yuzasidan puxta o'ylab tuzilgan rejaga ega bo'lishi va bu rejaning amalga oshirilishini qattiq nazorat qilib turishi lozim.

Mehnat va moddiy mablag'larni iqtisod qilish rejimini qat'iy amalga oshirmasdan turib, tannarxni kamaytirish va rentabellikni oshirish qiyin.

Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishning barcha sohalarida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni joriy qilish va xo'jalik hisobini mustahkamlash iqtisod qilish rejimini izchillik bilan amalga oshirishning eng muhim shartidir.

21.4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini aniqlash.

Qishloq xo'jaligi korxonalar va tashkilotlarining moliyaviy - ishlab chiqarish faoliyati yoki avans (mahsulot hamda mehnatga avvaldan to'lanadigan haq)ga berilgan sarmoya natijalarini aniqlash uchun iqtisodiy samara va iqtisodiy samaradorlik tushunchalari qo'llaniladi.

Bu tushunchalar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, samara olingan natijalarga sarflangan xarajatlardan qat'iy nazar, natijalarning pirovard ahamiyatini ifodalaydi. Samaradorlik esa natijalarni keltirib chiqargan sarflarda oxirgi natija hamda chiqimlar nisbatiga qarab aniqlanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashdan ishlab chiqarishda ikki asosiy vazifani shakllantirish mumkin. Birinchi, bevosita vazifalar - xarajatlarning belgilangan darajasida eng yuqori samaradorlikka erishish. Ikkinchi, qaytarma vazifalar topshirilgan samaradorlikka eng kam xarajatlar bilan erishish. Har bir korxonada faoliyatida doimo bu vazifalarning har ikkisini hal qilishga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy rejalashtirish va iqtisodiy tahlil qilish maqsadlari uchun iqtisodiy samaradorlik muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida iqtisodiy samaradorlikning quyidagi turlarini farqlash qabul qilingan:

- qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligini bir tarmog'I sifatidagi samaradorligi;
- qishloq xo'jaligi alohida sohalarining (paxtachilik, g'allachilik, moddiy - texnik ta'minot va h.z.) samaradorligi;
- alohida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yoki chorva mahsulotlari samaradorligi. Bu tur makroiqtisodiy darajada, ya'ni soha doirasida hamda mikroiqtisodiy darajada korxonada ishlab chiqarishi doirasida qo'llaniladi;
- korxonaning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi;
- qishloq xo'jaligi korxonasining tashkiliy bo'linmalari samaradorligi. Bunga alohida balans ajratilgan va ajratilmagan barcha bo'linmalar samaradorligi kiradi;
- alohida ko'rilgan texnik, tashkiliy, tashkiliy-texnik tadbirlar samaradorligi.

Tabiiyki, qishloq xo'jaligi korxonasining va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdoriy hamda sifat jihatlarini yuksaltirishga qaratilgan samaradorlik ko'rsatkichlari tovar ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi korxonasi miqyosida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun quyidagi natijalarning hisob-kitobi va tahlili amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarish natijalari - korxonaning o'z ehtiyojlari uchun sarflangan qismi chegirib tashlangandan Tovar ishlab chiqarilgan mahsulotlar realizatsiyasidan tushgan daromad;
- ijtimoiy natijalar - korxonada ishlovchilari va ularning oila a'zolariga sarflangan xarajatlardan iboratdir.

Bunday holatlarda xarajatlarning tarkibiga korxonaning bir yo'la va joriy qilinadigan xarajatlari qaytmas hisob bilan kiritiladi. Odatda, bir paytning o'zida asosiy vositalar va ularni ammortizatsiya qilish uchun joriy xarajatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarning hisob-kitobi o'tkaziladi.

Amaliyotda yaratilgan va olingan sof daromad ham farqlanadi. Yaratilgan daromad deyilganda, ishlab chiqarilgan barcha mahsulot hajmining uni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarga nisbati, olingan sof daromad deyilganda, faqat realizatsiya qilingan mahsulotdan kelgan

daromad tushuniladi. Mohiyatiga ko'ra olingan sof daromad mahsulotni realizatsiya qilishdan korxonaga tushgan foydaning o'zidir.

Qishloq xo'jaligi korxonasi ishlab chiqargan mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan daromad erishilgan samaradorlik ko'rsatkichi, ya'ni mutlaq (haqiqiy) ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq mohiyatan olingan daromadning o'ziniyoq samaradorlik ko'rsatkichi deb hisoblash

mumkin. Negaki, uning hisob-kitoblarida xarajatlar va mahsulotlarni realizatsiya qilishdan olingan foyda ko'rinishidagi samaradorlik to'la qayd etiladi.

### **12.5. Yagona yer solig'i va uning hisobi**

Kichik korxonalar uchun ilgari umumdavlat va mahalliy soliq yig'implari o'rniga yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisobi tuzishni osonlashtirdi, ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalar o'rniga yagona soliq hisobi beriladigan bo'ldi.

Yagona yer solig'i shirkat xo'jaliklari va fermer xo'jaliklari, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar manfaatiga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar, o'z xohishlariga ko'ra byudjetga kichik korxonalar uchun beriladigan yagona soliqni yoki qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun beriladigan yagona yer solig'ini to'laydilar.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni yer solig'ini solish obyekti hisoblanadi.

Yagona yer solig'i amaldagi barcha umumdavlat (alkogolli mahsulotga bo'lgan aksiz solig'idan tashqari) hamda soliqlar hamda yig'implar o'rnini bosa oladi.

Jumladan, u:

- daromad (foйда) solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- alkogolsiz ichimliklar va meva sharbatiga doir aksiz solig'I;
- ekologiya solig'i;
- suv resuslaridan foydalanganligi uchun soliq;
- yer osti boyliklaridan foydalanganligi uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar.

Yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, lisenziya yig'implari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalarni, shuningdek, alkogolli mahsulot uchun aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolingan.

Yuridik shaxs-tovar ishlab chiqaruvchiga qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga yer uchastkasi maydoni ushbu soliqqa tortish obyekti deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ining miqdori yer maydoni birligi uchun belgilangan to'lov ko'rinishida belgilanadi. U ba'zaviy stavkalardan yer uchastkasining joylashgan yer sifati (ball yoki boniteti) va suv bilan ta'minlanganligini e'tiborga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqib belgilanadi. Yagona yer solig'i qo'llanishining ahamiyati qishloq xo'jalik yerlaridan unumli foydalanishni kuchaytirish va soliq to'lash tizimini soddalashtirishdan iborat.

Yagona yer solig'ining vaqtinchalik ba'zaviy stavkalari tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlariga doir yagona yer solig'ini vaqtinchalik ba'zaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'ining vaqtinchalik ba'zaviy stavkalariga tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

- qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;
- ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, texnik sport turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya - sog'lomlashtirish majmualari egallagan yerlar;
- yangidan o'zlashtirilayotgan va meliorativ yaxshilanish jarayonida mavjud bo'lgan sug'orish yerlari loyihada ko'zda tutilgan muddatga, lekin u ishlar boshlangan vaqtdan boshlab besh yildan oshmasligi sharti bilan:
- ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash obyektlari band etgan yerlar;
- yangi bog'lar va uzumzorlar band etgan yerlar, hosil bera boshlagan vaqtga qadar;
- yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, shu

jumladan fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab ikki yil muddatga:

- daromad (foйда) solig'i va soliqni to'lashdan ozod etilgan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari.

Yagona yer solig'i bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilangan:

- ayrim qishloq xo'jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yer solig'ini, yoxud daromad (foйда) solig'ini to'lashga doir belgilangan imtiyozlar ular berilgan muddat tugagunga qadar yagona yer solig'ini to'lashga tadbiiq etiladi:

- yagona yer solig'ini hisoblanayotganda soliq olinadigan bazadan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga binoan yer solig'iga tortilmaydigan yer uchaskalarining maydoni chiqarib tashlanadi.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar mustaqil ravishda, yer maydoni, ba'zaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqib hisoblaydilar.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarda ularning maydonlari yer tuzish xizmati tomonidan o'tkaziladigan yer hisobi ma'lumotlari qishloq xo'jaligi ekinlari va maydonlari asboblari yordamida o'lchash materiallari, shuningdek ixtisoslashtirilgan loyihalash va tadqiqot tashkilotlari o'tkazgan tekshiruvlarining boshqa materiallari bilan tasdiqlanishi kerak.

Qishloq xo'jaligi yerlarida yagona yer solig'ining ba'zaviy stavkalari qilib quyidagilar aniqlangan.

Sug'oriladigan yerlar bo'yicha - 1-darajali yerlari (bonitet bali 10 gacha);

- lalmikor yerlar bo'yicha - tekislik zonasi yerlari;

- pichanzor va yaylovlar bo'yicha «cho'l» mintaqasi yerlari;

Har bir yer maydoni turi bo'yicha (sug'oriladigan yerlar, lalmikor yerlar, pichanzorlar, yaylovlar va hokazo) tegishli ba'zaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari qo'llaniladi, ularni O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi umumiy belgilangan tartibda joylarga yetkazadi.

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridan ba'zaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shahar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Lalmi yerlar, pichanzorlar va yaylovlardagi ba'zaviy stavkalar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo'yicha ba'zaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug'oriladigan yerlari bo'yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Qishloq xo'jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmagan yagona yer solig'ining hisoblab chiqilgan miqdorini yer uchastkasi joylashgan tuman byudjetiga, ularga tegishli yerlarning shaharlarda va shaharlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qismi uchun yagona yer solig'ini soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan tuman byudjetiga o'tkazadilar. Yagona yer solig'ining hisoblangan summasi davr xarajatlariga qo'shiladi.

Qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarga yil davomida yer uchastkasi ajratilgan oydan boshlab yagona yer solig'I to'lay boshlaydilar. Xo'jalikning yagona yer solig'ini hisoblash usuli quyida keltirilgan.

Qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilanganda, ular shunday huquq vujudga kelgan oydan boshlab to'lamaydilar. Imtiyozlarga ega bo'lish huquqi to'xtatilganda, bunday huquq to'xtatilgandan keyin boshlab yer solig'ini to'lashni boshlaydilar:

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lmagan yagona yer solig'ining hisoblangan summasi yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman byudjetiga topshiriladi.

21.8-jadval

*Yagona yer solig'ini hisoblash.*

	Maydon (g <sup>a</sup> )	1 ga ba'zaviy solliq stavkasi	Tuzatish koeffi-siyenti	Solliq summasi
1 sinf (0-10 ball)	-	1867,3	-	
2 sinf (11-20 ball)	-		1,5	-
3 sinf (21-30 ball)	180,1	1867,3	2,25	756672,1
4 sinf (31-40 ball)	485,5	1867,3	3,29	2982620,7
5 sinf (41-50 ball)	93	1867,3	4,67	810978,6
6 sinf (51-60 ball)	322,5	1867,3	6,54	3938402,2
7 sinf (61-70 ball)	822,7	1867,3	9	13826049,3
8 sinf (71-80 ball)	381,2	1867,3	11,68	8313972
9 sinf (81-90 ball)	-		14,55	-
10 sinf (91-100 ball)	-		17,5	-
Jami	2283			30628695,0
<b>Lalmikor, pichanzor, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar</b>				
Tekislik tepaliklar	34	197,6	1,19	7994,8
Tog' oldi va tog'li yer	197	392,0	1,67	128964,0
Jami	281			136958,9
Xo'jalik bo'yicha jami	2564			30765654
Muddatini kechiktirganligi uchun 1 kun jarima -0,07%				

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari yerlarning shahar va posyolkalarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qismi uchun yagona yer solig'i summasi soliq to'lovi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi tuman soliq inspeksiyasiga to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari yagona yer soligi summasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 dekabrda 610-son Qaroriga muvofiq belgilangan stavkalarda hisoblab chiqadilar va o'zlari joylashgan hududga soliq hisobini taqdim etadilar.

Yil davomida yer maydonlari va tarkibi o'zgargan taqdirda davlat soliq inspeksiyalariga hisobot yilining 1 dekabrgacha yagona yer solig'ining yangi hisob-kitobi topshiriladi, soliqning qolgan qismi uni hisobga olgan holda to'lanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini o'rganish usullari.
2. Mahsulot tannarxi mohiyati va hisoblash usullari.
3. Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar.
4. Iqtisodiy samara va samaradorlik tushunchalari.
5. Yagona yer solig'I va uning hisobi.

### Glossariy

**ASOSIY FAOLIYATDAN KO'RILGAN FOYDA** - mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyd bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

**BALANS** - xalq xo'jaligida va umuman xo'jalik, savdo ishlarida bir-biriga bog'liq bo'lgan sohalarining o'zaro muvofiq salmog'i. B. biror korxonada yoki tashkilotda muayyan bir muddat oralig'idagi kirim bilan chiqimni, ya'ni daromad bilan buromadni bir-biriga taqqoslab chiqilgan yakun.

**BALANS REJA** - korxonadagi moliyaviy mablag'lardan foydalanish tuzilishi va aktivlari tarkibining reja davri oxiridagi natijalarini prognozlashtirish jarayonini aks ettiradi.

**BEVOSITA XARAJATLAR** - bitta mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq, miqdori ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga nisbatan o'zgaruvchan xarajatlar.

**BILVOSITA XARAJATLAR** - yordamchi ishchilarga vaqt bay ish haqi to'lash, ishlab chiqarish asosiy vositalarining amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarini saqlash, joriy va kapital remont qilish va mahsulot hajmining o'zgarishidan qat'i nazar nisbatan doimiy bo'lib qoladigan boshqa xarajatlar singari ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq

ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlar.

**DAROMADLAR** - hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi.

**FAVQULODDA DAROMAD (ZARAR)** - xo'jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyatidan aniq farq qiladigan, ya'ni tez-tez yoki muntazam sodir bo'lmaydigan voqyealar yoki bitimlar natijasida yuz bergan daromadlar yoki xarajatlar.

**FOYDA** - 1) biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; 2) daromadning xarajatga nisbatan farqidan tashkil topgan summa, mablag', daromad; 3) qarzga berilgan puldan foydalanilganligi uchun qarzdordan qarz beruvchi (kreditor) oladigan qo'shimcha pul, haq.

**ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI** - tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

**KALKULYASIYA** - mahsulotning o'lchov birligini yoki bajarilgan ishning tannarxini hisoblash.

**MAHSULOTNI SOTISHDAN OLINGAN YALPI FOYDA** - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tavofut.

**MOLIYAVIY NATIJALAR** - xo'jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakuni.

**MOLIYAVIY REJALASHTIRISH** - muayyan muddat uchun moliyaviy resurslar harakati va tegishli moliyaviy munosabatlar harakatini asoslashdan iborat jarayon.

**NARX** - baho - tovar qiymatining pulda aks etishi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy dastak. N. faqat tannarxga emas, balki talab va taklif, shuningdek tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlar o'rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid qobiliyatiga ham bog'liq.

**RENTABELLIK** - (nem.rentabel-foydali, daromadli)-foyd olish darajasi. R. ma'lum davr mobaynida olingan foyda miqdorining shu davrda sarflangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot vositalari qiymati yig'indisiga yoki mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari-tannarxga nisbati sifatida foizlarda hisoblanadi.

**SOF FOYDA** - korxonada moliyaviy faoliyati natijasida ko'rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so'ng korxonada ixtiyorida qoldirilgan foyda.

**SOF MILLIY MAHSULOT** - (SMM) -yalpi milliy mahsulotdan amortizatsiya ajratmalari summasini chegirib tashlangandan qolgan qiymat summasi.

**SOLIQ IMTIYOZLARI** - muayyan turdagi ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan soliq to'lashda beriladigan imtiyozlar.

**SOLIQ TO'LANGUNGACHA OLINGAN FOYDA** - umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

**SOLIQLAR** - davlatning korxonalar, tashkilotlar va aholidan undiradigan pul mablag'lari, milliy daromadni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot vazifalariga muvofiq taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlovchi moliya mexanizmining muhim vositalaridan biri, davlat tomonidan tartibga solinadi.

**UMUMXO'JALIK FAOLIYATIDAN OLINGAN FOYDA YOKI ZARAR** - asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko'rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

**YALPI MILLIY MAHSULOT** - (YAMM) ma'lum muddat (odatda bir yil) ichida mamlakatda ishlab chiqarilgan va bevosita iste'molchilarga tushadigan pirovard mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor baholaridagi summasidan iborat. Eng muhim va sintetik iqtisodiy ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, o'z tarkibiga mehnat vositalari sarflarini qoplash fondini (ya'ni renovasiyaga ishlatiladigan amortizatsiya miqdorini) va milliy daromadni oladi. YAMM muayyan narxlarda ifodalanadi, unga narx tarkibiga kiruvchi bilvosita soliqlar va nomoddiy tarmoq ko'rsatgan xizmatning qiymati ham kiradi.